

BOSHLANG'ICH 1-2-SINFLARDA DARSLARNI FANLARARO ABSTSESSIAL VA ORDINATAL BOG'LAB TASHKIL QILISH O'QUVCHILAR KREATIV FIKRLASHLARINI RIVOJLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA

Xudayberganov G'.Q.

UrDU "BTM" kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13326754>

Boshlang'ich sinflarda darslarni predmetlararo, fanlararo aloqadorlikda tashkil qilish o'qishning ilk kunlaridan boshlab yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'qituvchining bu davrdagi eng asosiy vazifalaridan biri-bolalarga xat-savod asoslarini o'rgatish bilan birga o'quvchilar ongida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishdir.

Boshlang'ich ta'limda fanlararo aloqadorlikda darslarni tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchining boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvur asoslarini shakllantirish va ularning rivojlanish qonunlariga o'z munosabatlarini bildirish olishiga erishishdir.

Darslarni fanlararo abstsessial va ordinal bog'lab tashkil qilishdan maqsad, o'quvchilar o'zi yashayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam, moddiy va madaniyatning turli-tumanligi haqida keng va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi haqida, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat ma'lum bilimlarni egallashgagina emas, obrazli fikrlashni rivojlantirishga ham beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, obrazlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyosi ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yadi. Bunda kichik maktab o'quvchilarining kurs bilan abstsessial va ordinal ravishda boshqa fanlarni ham o'rganishlariga qulay sharoitlar yaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishiga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning materialni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi.

O'qitishning dastlabki bosqichidagi asosiy vazifalaridan biri bolalarda fazoviy tasavvurlarini shakllantirishdir. Rus metodisti K.Ushinskiy: bolalarga xarf o'rgatishning birinchi kunidan boshlab belgilarning fazoviy joylashishini va xarfning qismlari yoki belgilarining muvofiqligini bilishni rivojlantirish kerak, degan.

O'quvchilarga xusnixatdan tayyorgarlik mashqlarini o'rgatishda «pastda», «yuqorida», «o'ngda», «chapda» kabi tasavvurlarni shakllantirgan xolda xarf elementlarini yozdirish amalshga oshiriladi. SHuningdek, maematika darslarida xam «o'ngda», «chapda», «oldinda», «orqada», «yuqorida», «pastda» tushunchalarni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. SHuningdek, boshqa darslarda xam bu tushunchalardan keng foydalaniladi.

Ona tili va matematika fanlarini abstsessial va ordinal bog'lab tashkil qilish o'quvchilarni boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni erkin, mustaqil ishlashga o'rgatish, aqliy faoliyatini kengaytirish, kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o'stirish maqsadida maqollar, masallar, sherlar tarzida va boshqa usullar yordamida ham berilishi mumkin. Quyida biz fanlarini abstsessial va ordinal bog'lab tashkil qilishga doir na'munalar keltiramiz:

Maqollarda nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying va to'ldiring:

- "o'lchab kes"

Javob: yetti, bir

- " ikki..... - bir o'ttiz"

Javob : o'n besh

- "..... so'zdan ish yaxshi"

Javob : Mingta, bitta

- "..... yigitga – hunar oz"

Javob: Bir, qirq.

Bunday maqollarni boshlang'ich sinf darslarida o'rgatish orqali o'quvchilarning maqol bilish boyligi, hamda matematik hisob va sonlarni o'rganish ko'nikmasi shakllanadi.

Quyidagi sherlarni ifodali o'qing va javobini toping:

- To'rtta tovuq don cho'qir,

Suv ichadi ikkisi

Aytchi bo'lar qancha?

Inda bo'lsa bittasi.

Javob: yettita

- O'ng shoxdadur to'rtta qush

So'l shoxdadur to'rtta qush,

Uchib ketsa to'rttasi

Shoxda qolar nechitasi?

Javob: To'rtta

- Quloq sol, eshit Javlon,

Menda bor ikki karmon,

Har birida besh yong'oq,

Jami qancha? Ayt o'rtoq.

Javob: o'nta

Bunday sheriylar masalalar va maqollar o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, kreativ fikrlashlarini rivojlantirishga zamin boladi.

Sheriylar masalalar va maqollarni o'qish va tahlil qilish jarayonida ifodali o'qish, so'z mag'zini tushunish, ma'lumlar va noma'lumlarni aniqlash, yechim izlash orqali fikrni to'g'ri bayon qilish malakalari shakllantiriladi hamda, gap mazmunini tahlil qilish, mazmunni bayon qilish jarayonida fikriy mushohadada, fikrlar tartibiligi, so'zlar ketma- ketligiga oid bo'lgan malakalar shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda ona tili va matematika darslarini fanlararo abstraktsion va ordinal bog'lab tashkil qilish o'quvchilarning kreativ fikrlashga o'rgatish bilan birga ularda imloviy va nutqiy savodxonliklarini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Mavlonova. R. A, Raxmonqulova. N. H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi, : T, "Ilm ziyosi" nashriyoti, 2009-yil.
2. Xudoynazarov E. M., Xudayberganov G'. Q. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy fikrni rivojlantirish. Darslik. -Toshkent: BOOKMANY PRINT, -2023. -B-214.

3. Атаханов Р.А. Математическое мышление и методики определения уровня его развития //Под ред. Давыдова В.В. Москва - Рига, 2000. – 208 с.
4. Жуманев М.Э. Ўқитувчининг ижодий шахс сифатида ривожланишида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий-математик тайёргарлиги. Монография. -Т.: Фан, 2009. -240 б.

INNOVATIVE
ACADEMY